

shakllantirilishi muhimdir. Uning barkamollik darajasi nasl-nasabi, boyligi bilan emas, balki unga beriladigan bilimlar, aqliy imkoniyatlari-yu, ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amallari bilan belgilanadi. Bu pedagoglar uchun talaba shaxsida hosil qilingan bilim emas, balki uning komil insonlik darajasi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shaxs ma'naviy fazilatlarining qaysidir bir miqdori tug'ma bo'lsa-da, asosan, ta'lim va tarbiya vositasida shakllantiriladi. Shunday ekan, pedagogika jamiyat taraqqiyotida, xalqimizning, shu jumladan, yoshlarimizning mentaliteti va ma'naviy qiyofasini, shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Yangicha pedagogik-tarixiy va falsafiy tafakkurga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlardan yana mustaqillik davrida - uning byurokratik qoliplardan qutulib, demokratik va insonparvarlik mazmun kasb etib borayotganligidir.

Milliy pedagogikaning sifatlaridan yana biri uning insonparvarlashganligidir. Yaqin o'tmishda ta'lim-tarbiya tizimlari uchun ham, pedagogika uchun ham o'quvchi va talabaning o'zi emas, balki u egallaydigan bilim va ko'nikmalari muhim sanalardi. Ta'lim-tarbiyaning insonparvarlashuvi, barcha pedagogik qarashlar markazida tarbiyalanuvchining shaxs-sifatida shakllanishini, talaba va o'qituvchi, tarbiyachi-tarbiyalanuvchi munosabatlarining tubdan o'zgarishini, jamiyatning insonlar hayoti va sog'lig'i, ularning huquqlari, milliy va jahon ta'lim tizimi tajribalari asosida shaxs taraqqiyoti, umuminsoniy qadriyatlar, ta'lim olish va o'quv muassasasining turini erkin ravishda tanlash, alohida o'z imkoniyatlari va qobiliyatiga asosan xo'jalik yuritish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish mustaqilligi va tashabbusiga, malaka va ko'nikmasiga ega bo'lishni taqozo etadi.

O'qish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash quyidagi natijalarni beradi:

- o'qitishning ilmiyligi oshadi. Bilim berishda ilmiylikka erishish uchun avvalo o'qitish jarayonida fan-texnikaning so'nggi yutuq va kashfiyotlaridan foydalanish, o'quv fanlari ilm-fan asosida yaratilishi, talabalarni ilmiy tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishi lozim. Bu talabalarda turli fan-texnika yangiliklariga obyektiv tarzda yondashish ko'nikmasini shakllantiradi. Talaba ilmiy bilimlarni o'zlashtirar ekan, uning fikrlash qobiliyati o'sib, rivojlanib boradi;

- talabalarda ijodkorlikni shakllantirish. Ijodkorlik deganda biz qandaydir bir buyum yoki badiiy asarning yaratilishi emas, balki har bir vazifaga o'z nuqtayi nazari bo'yicha yondashishi, bir muammo ustida mustaqil fikr yurita olishi, o'qish jarayonida orttirgan barcha bilimlarini hayotda kechayotgan hodisalarga bog'lay olishi va ularni tahlil qila olishi, o'rganilayotgan soha bo'yicha o'zining yangi qarashlarini ifodalashini tushunishimiz lozim. Talabalarda, ayniqsa, o'z fikrlarini yozma tarzda ifodalay olish qobiliyatini rivojlantirishga ahamiyat qaratishi zarur. Chunki, shu orqali talabalar o'z bilimlarini to'laroq, mazmunliroq ifodalaydilar;

- o'qish jarayonida talabalarda mustaqillikni tarbiyalash. Talabalar va o'quvchilar darsda o'tilgan mavzu bilan cheklanib qolmasliklari zarur. Ular mavzu yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar izlashlari, ulami o'zlashtirishlari, o'tilgan mavzu amaliyotda

qanday natija berishini ham sinab ko'rishlari lozim. Masalan, narx o'zgarishining aholini sotib olish qobiliyatiga ta'siri. Hozirgi bozor sharoitda talabalar, ma'lumotlarni tez qayta ishlay olishlari lozim. Buning uchun talabalarning bilimlari keng qamrovli bo'lishi, ularni chuqur anglashlariga yordam berishi, shuningdek, talaba mustaqil fikr yuritish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Yuqoridagi qobiliyatlarga ega bo'lgan talabalar nafaqat o'z mutaxassislik fanlari, balki boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham muvaffaqiyatga erishadilar.

«Pedagogika» atamasi yunoncha bo'lib, «bola yetaklovchi» degan ma'noni bildiradi. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayining bolalarini sayr qildirgan, maktabga olib boradigan qullarni «bola yetaklovchi», ya'ni tarbiyachini «pedagogos» deb atashgan. Keyinchalik esa bolalar ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanishga maxsus tayyorlangan o'qimishli donishmandlarni «pedagog» deb atay boshlaganlar.

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta shunday ta'rif bergan edi: «Ta'lim, - degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishni, o'rganishidir.

Ma'rifat darg'asi A.Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida esa pedagogika fanini aniq va tushunarli qilib ta'riflaydi: «Tarbiya pedagogika», ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur...

«Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot —yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir...» Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, pedagogika tushunchasini tarixiy taraqqiyotiga quyidagi umumlashgan ta'rifni bersak bo'ladi:

-pedagogika jamiyatning ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan ilm-fan va amaliy faoliyat sohasidir. Hozirgi zamon pedagogik fikrlar va ta'lim-tarbiya konsepsiyasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, u yuksak umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy topib bormoqda, bu «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko'rsatib berilgan

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarida: ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi, demak, ta'lim-tarbiya ishlari davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biridir.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

- bilimli bo'lish va iste'dodlilarni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Har bir jamiyatda ham pedagog, o'qituvchi, tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida katta hurmat bilan qarab kelingan. Ayniqsa, bizning mustaqil yurtimizda o'qituvchiga hurmat-e'tibor va unga qo'yilgan mas'uliyat ham nihoyatda oshib borilmoqda.

Pedagog shunday yetakchilik xususiyatiga ega bo'lgan, ma'naviyati yuksak shaxs bo'lishi va shunday shaxsni tarbiyalashi lozim. Shaxsning ma'naviy olami yuqori bo'lsa, tabiiy ravishda bu uning amaliy faoliyatida ham o'z ifodasini topadi, uning g'oyalari jamiyatga singadi.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha: «O'qituvchi matonatli sof vijdonli, rostgo'y, bolani tarbiyalash yo'llarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'limog'i lozim. Muallim o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kirmog'i lozim».

«Pedagog»- deydi al-Forobiy, - o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insonlikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi», deb ta'kidlaydi. Yusuf Xos Hojib «A'zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo'lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o'n ming va yuz minglarcha odamlar halok bo'ladilar», - deb ta'kidlashi bejiz emas. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ham o'qituvchining yoshlarga ta'sir o'tkazish mehnatini xolisona baholab: «Agar shogird nodonlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi», «Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila», -deydi.

Nasriddin Tusiy o'zining «O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risidagi» nomli asarida: «Pedagog nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin», - deydi. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy pedagog-psixolog bo'lishi lozim. Shuning uchun ham u yoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, jamoada ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Jamiyatning pedagoglik kasbiga qo'yadigan asosiy talabalari quyidagilardan iboratdir:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklaming mohiyatini bilishi, yoshlarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z vatani tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- keng bilim saviyasiga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yoshlar pedagogikasi, psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yoshlar fiziologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;
- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuqlardan xabardor bo'lishi;
- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

- yoshlami bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi, empatiya, his-tuyg'ulariga ega bo'lishi;

- pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik takt (nazokat)ga ega bo'lishi;

- o'qituvchining o'z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi va h.k.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishiga intilishi kerak. Pedagoglarga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kuzatishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.Atayeva, F.Rasulova. Umumiy pedagogika.- T.: "fan va texnologiya", 2012, 3-10-30-betlar.

2. A.Bekimbetov. Qoraqalpoq pedagogikasi yoshlarni olamni bilishga o'rgatish an'analari.- Q.: "Maktab va hayot", 2008, 18-20-betlar.

3. Sh. Rahimov. Pedagogika tarixi.- T.: "fan va texnologiya", 2015, 9-27-75-betlar.

4. Shuxratovna, A. N. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 1-4.

5. Shuxratovna, A. N. (2024). RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI DINIY TARKIBIY QISMLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING QIYOSIY TAHLILI. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 5-8.

6. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI O 'QITISH METODIKASI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(4), 170-175.

7. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILINI O 'RGATISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(4), 182-186.

8. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING SHAKLLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(4), 176-181.

9. Zafarovna, Y. I., & Shuxratovna, A. N. (2024). O 'YINNING PEDAGOGIK JARAYONDA TUTGAN O 'RNI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 3(4), 125-128.

10. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA Olishning QIZIQARLI YONDASHUVLARI. *Scientific Impulse*, 2(19), 108-110

11. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Журнал иностранных языков и лингвистики, 6(6), 91-98.

12. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). Personality development and activity (communication), their management as an educational pedagogical problem. Academic research in educational sciences, 2(4), 81-88.

13. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Журнал иностранных языков и лингвистики, 6(6), 91-98.

14. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Журнал иностранных языков и лингвистики, 6(6), 91-98.

15. qizi, D. G. B. ., Darxonova Gulmira Burxon qizi, Yakubova Intizor Zafarovna, & Shuxratovna, A. N. . (2024). O'YINNING PEDAGOGIK JARAYONDA TUTGAN O'RNI. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 3(4), 125–128. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/501>

16. Isroilova Sevinch Aqilbek qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA OLIISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI. Scientific Impulse, 2(19), 108–110. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/15153>

17. Shuxratovna, A. N. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 116-118.

18. Raximboyeva Gulsanam Gulmirza Qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna (2024). SU'NIY INTELLEKT: FOYDALIMI YOKI ZARARLI ?. Science and innovation, 3 (Special Issue 18), 691-693. doi: 10.5281/zenodo.10806277

19. G'ulomjonova, D., & Artikova, N. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 112-117.

20. 7. Shuxratovna, A. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTUR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. Scientific Impulse, 1(4), 1592-1594.